

“Kelajak soati” darsining 5-8-sinflar uchun mashg‘ulot ssenariysi:

34-mavzu: “Mening oilam”

Dars maqsadi: O‘quvchilarda oila jamiyatning eng muhim bo‘g‘ini ekanligi, oilaviy qadriyatlar, mehr-oqibat, o‘zaro hurmat va mas’uliyat haqidagi tushunchalarni shakllantirish.

Annotatsiya: Mazkur mashg‘ulot davomida o‘quvchilar oila tushunchasining ma’naviy-axloqiy, huquqiy va hissiy jihatlarini anglaydilar. Suhbat, guruhli ish, videolavha, o‘yinli topshiriqlar, maqollar va sahna ko‘rinishlari orqali oiladagi har bir a’zoning o‘rni, majburiyati va burchi haqida fikr yuritishadi. “Oila – mehr maskani” g‘oyasi asosida o‘quvchilarda o‘z oilasiga mehr, g‘urur va mas’uliyat hissi kuchayadi.

Aniq maqsadlar:

1. O‘quvchilarda “oila” tushunchasining mohiyatini anglash ko‘nikmasini shakllantirish;
2. Oilaning jamiyatdagi o‘rni va ahamiyatini tushuntirish;
3. Har bir oila a’zosining o‘zaro hurmati, mas’uliyati va mehr-muhabbati haqida fikr yuritish;
4. O‘quvchilarda oilaga sadoqat, ota-ona mehnatini qadrlash va oilaviy qadriyatlarga hurmat ruhini tarbiyalash.

Asosiy g‘oyalar: Oila – inson hayotining poydevori. Har bir bola, har bir inson o‘z oilasida muhabbat, mehr va mas’uliyatni his qilib ulg‘ayadi. Oilada mehr-oqibat, sabr, hurmat va fidoyilik muhitini yaratish – har bir a’zoning vazifasidir.

Kutiladigan natijalar:

Aqliy va tushunchaviy darajada:

- O‘quvchilar “oila” tushunchasini keng qamrovda tushunadi;
- Oila jamiyatning asosi ekanligini anglaydi;
- Har bir a’zoning oiladagi o‘rni va burchini biladi.

Hissiy va qadriy yondashuvda:

- Mehr, g‘amxo‘rlik, hurmat kabi qadriyatlarni qadrlaydi;
- Ota-ona mehnatini e’tirof etadi;
- Oilaga muhabbat va sadoqat hissi kuchayadi.

Amaliy ko‘nikmalarda:

- O‘z oilasi haqida iftixor bilan so‘zlay oladi;
- Oilada muammolarni muloqot orqali hal etish yo‘llarini biladi;
- O‘z oilasida ijobiy muhit yaratishga harakat qiladi.

Ijtimoiy-pedagogik jihatdan:

- Oila qadriyatlarini himoya qilish mas’uliyatini his etadi;
- Jamoada o‘zaro hurmat va totuvlikni qadrlaydi.

Metapredmet yondashuv: Bu dars orqali o'quvchilar turli fanlardan olgan bilimlarini hayotiy vaziyatlarda qo'llashadi:

- **Adabiyot:** oila haqidagi she'rlar, maqollarni o'rganish;
- **Tarix:** ajdodlar oilaviy qadriyatlariga nazar;
- **Texnologiya:** oilada mehnat, mas'uliyat;
- **San'at:** oila manzarasini chizish;
- **Axborot texnologiyalari:** oila haqida taqdimot yaratish.

Dars hamkori: Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti.

<https://milliytarbiya.uzedu.uz/>

Dars davomiyligi: 45 daqiqa.

Mashg'ulot shakli: suhbat, guruhli ish, videolavha, o'yinli topshiriq, tahlil.

I. KIRISH. Motivatsion qism (5 daqiqa)

O'qituvchi sinfga kirib, birdaniga gap boshlaydi:

O'qituvchi: “Otam meni tushunmaydi.”

“Uyda meni eshitishmaydi.”

“Kattalar hech narsani bilmaydi.”

So'ng o'quvchilarga qarab jilmayadi.

O'qituvchi: Rostini aytinglar-chi, hech shunaqa gaplar xayolingizdan o'tganmi?

Sinfda kulgilar, “ha”, “bo'lgan” degan javoblar eshitiladi.

O'qituvchi: Ayniqsa o'smir yoshida odamga atrofda bo'layotgan hamma ishlar adolatsizdek tuyuladi. Ba'zida telefonni olib qo'yishadi, ba'zida “erta uxla”, “ko'p kompyuter o'ynama (yoki televizor ko'rma)”, “do'stlaring bilan kechasi ko'chada kamroq yur” deyishadi. Shunda ichimizda “meni tushunishmaydi” degan tuyg'u paydo bo'ladi. To'g'rimi?

Bir necha o'quvchi fikr bildiradi.

O'qituvchi: Lekin inson qiyin vaziyatga tushganda, qo'rqib ketganda yoki xafa bo'lganida birinchi bo'lib kimni eslaydi?

O'quvchilar: Onasini, otasini, oilasini.

O'qituvchi: Ha. Chunki odamning eng birinchi ishonch joyi bu – oilasi. Ba'zan ota-onamiz bizni qattiq gap bilan tarbiyalaydi, ba'zan tushunmayotgandek tuyuladi. Lekin kasal bo'lsak, tuni bilan uxlamaydigan ham ular. Xato qilsak, hammadan oldin himoya qiladigan ham ular. Butun dunyodan ranjisak ham, oxiri qaytib boradigan joyimiz – oilamiz.

Bir daqiqa o'quvchilar jim bo'lishiga imkon beriladi.

O'qituvchi: Tasavvur qiling, kechasi chiroq o'chib qoldi. Hamma joy qorong'i. Tashqarida shamol. Siz qo'rqib uyg'onib ketdingiz. O'sha paytda notanish odamning yoniga yugurasizmi yoki o'z yaqinlaringizning oldigami?

O'quvchilar javob beradi.

O'qituvchi: Demak, oila shunchaki bir uyda yashaydigan odamlar emas. Oila – insonning ichki tayanchi. Inson yiqilganda ushlab qoladigan kuch. Bugun biz “Mening oilam” mavzusida aynan shu haqida gaplashamiz. Oila nima uchun kerak? Nega ba'zan janjal bo'lsa ham, inson baribir oilasini sog'inadi? Nega dunyodagi eng kuchli odamlar ham oilasiz yasholmaydi? Va kelajakda biz qanday oila qurishni xohlaymiz?

II. ASOSIY QISM (35 daqiqa)

O'qituvchi: Bolalar, hozir biz oila haqida gapiryapmiz. Chunki oila faqat bitta uy yoki bir nechta inson emas, balki jamiyatning eng muhim tayanchidir. Shuning uchun ham bugungi kunda Prezidentimiz tashabbusi bilan davlatimizda oilalarni

qo‘llab-quvvatlash, onalar va bolalarni himoya qilish, yoshlar uchun yaxshi sharoit yaratish hamda mahallalarda tinch muhitni mustahkamlashga katta e‘tibor qaratilmoqda. Hozir shu mavzuga oid videorolikni tomosha qilamiz. Videoda oilani asrash va mustahkamlash uchun qilinayotgan ishlar haqida hikoya qilinadi.

Vizual kontent

Oila – muqaddas qadriyat

https://t.me/kelajaksoati_rasmiy/587

O‘qituvchi: Ko‘rdingizmi, bolalar, mustahkam oila faqat bitta xonadon uchun emas, butun jamiyat uchun muhim ekan. Chunki oilasi tinch bo‘lgan insonning qalbi ham xotirjam bo‘ladi, yaxshi o‘qiydi, mehnat qiladi va kelajakka ishonch bilan qaraydi. Shu sababli oilani asrash faqat ota-onaning emas, har birimizning vazifamiz hisoblanadi.

Sizningcha, inson nima uchun oilaga muhtoj?

O‘quvchilardan turli javoblar olinadi: mehr uchun, yordam uchun, yolg‘iz bo‘lmaslik uchun va hokazo.

O‘qituvchi: To‘g‘ri. Oila inson uchun faqat ovqat yoki uy emas. Oila – bu ruhiy xavfsizlik joyi. Inson dunyoda qanchalik kuchli bo‘lmasin, ichida baribir mehrga ehtiyoj sezadi. Shuning uchun ham odamlar “uyimga ketgim kelyapti” deydi. Chunki uy deganda devor emas, yaqin insonlar esga tushadi.

O‘qituvchi biroz pauza qiladi.

O‘qituvchi: Ba‘zan ota-onalar o‘z mehrini turlicha ko‘rsatadi. Kimningdir onasi har kuni quchoqlab, yaxshi gaplarni ko‘p aytadi. Kimningdir otasi uncha gapirmaydi, lekin sovuqda kutib oladi, kasal bo‘lsa dorisini olib keladi, tinmay ishlaydi. Ayrim insonlar mehrini so‘z bilan emas, amali bilan ko‘rsatadi.

Shuning uchun har doim bir narsani eslab qolinglar: ota-onaning har bir tanbehi ortida ham befarqlik emas, xavotir yotadi.

Agar ota-onangiz sizni umuman yaxshi ko‘rmasa, siz uchun qayg‘urmasa nima bo‘lardi?

O‘quvchilar javob beradi.

O‘qituvchi: Ha, unda ular sizning qayerga ketayotganingizga ham, kim bilan yurayotganingizga ham, dars qilayotganingizga ham qiziqmagan bo‘lardi. Aslida esa ular sizning kelajagingiz haqida qayg‘uradi.

Shundan so‘ng o‘qituvchi kichik vaziyat aytadi.

O‘qituvchi: Bir bola otasidan ranjibdi. Chunki otasi unga yangi telefon olib bermabdi. Bola “Meni umuman tushunmaydi” deb o‘ylabdi. Oradan vaqt o‘tib, bilsa, otasi o‘sha paytda oilaning boshqa muammolari uchun pul yig‘ayotgan ekan. Balki ota bu haqida bolasiga gapirmagandir, lekin ichida oilasi haqida o‘ylagan.

Hayotda ko‘p narsani katta bo‘lgach tushunamiz. Shu sababli ba‘zan vaziyatga faqat o‘zimiz tomondan emas, yaqinlarimiz tomondan ham qarashni o‘rganishimiz kerak.

Interaktiv mashq: “Ikki tomonning ko‘zi bilan”

O‘qituvchi sinfni kichik guruhlariga bo‘ladi.

Har bir guruhga vaziyat beriladi.

1-vaziyat: O‘g‘il bola kechqurun do‘stlari bilan uzoqroq yurmoqchi, onasi esa ruxsat bermayapti.

2-vaziyat: Qiz bola telefon o‘ynab o‘tiribdi, akasi esa “darsingni qil” deb urishyapti.

3-vaziyat: Uyda ukasi biror buyumni sindirib qo‘ydi va ayb sizga qolib ketdi.

Topshiriq:

Har bir guruh vaziyatni ikki tomondan tushuntiradi. Avval bolaning his-tuyg‘usi, keyin ota-ona yoki aka-ukaning his-tuyg‘usi aytiladi.

Bir necha guruh chiqib javob beradi.

O‘qituvchi (xulosa qiladi): Mana ko‘rdingizmi, har bir vaziyatning ikki tomoni bo‘ladi. Biz faqat o‘zimizni haq deb o‘ylashimiz mumkin. Lekin oilada eng muhim narsa – bir-birini tushunishga harakat qilish.

O‘qituvchi (davom etadi): Bolalar, oilada faqat ota-ona emas, bobo va buvilar ham juda katta o‘rin tutadi. Ba‘zan bobo-buvilarimizning gaplari eskicharoq tuyulishi mumkin, lekin ularning hayotiy tajribasi, sabri va mehri oilamizdagi iliq muhitni ushlab turishda juda katta ahamiyatga ega. Ular oilani birlashtirib turadigan iliq rishtalardan biridir.

Ko‘pchiligimiz bolaligimizda buvimizning ertaklarini eshitib ulg‘ayganmiz, bobomizning nasihatlarini tinglaganmiz. Ular mehrini baland ovozda emas, oddiy g‘amxo‘rlik bilan ko‘rsatadi: hol-ahvol so‘raydi, quchadi, erkalaydi, shirin taomlar va yaxshi narsalarni ilinadi.

Hozir sizlarga dunyo miqyosida katta yutuqqa erishgan hamyurtimiz, shaxmat bo‘yicha Nomzodlar turniri chempioni Javohir Sindorovning bobosi Komil Sindorov bilan bo‘lgan suhbatni qo‘yib beraman. Bu suhbat orqali katta yutuqlar ortida faqat iste‘dod emas, balki oiladagi tarbiya, qo‘llab-quvvatlash va yaqinlarning ishonchi ham turishini ko‘rishingiz mumkin.

Vizual kontent

Javohirning bobosi bo‘lib tanildim...

<https://youtu.be/AF3WNk7MuZU>

O‘qituvchi: Ko‘rdingizmi, bolalar, insonning o‘ziga bo‘lgan ishonchi ham ko‘pincha oiladagi mehr va tarbiyadan boshlanadi. Shu sababli har bir katta yutuqning ildizida oilaning hissasi bor.

Bolalar, oiladagi aka-uka, opa-singillar ham inson hayotidagi juda katta boylik. Hozir ba‘zan urishib qolishingiz mumkin. Bir-biringizning narsangizni olib qo‘yarsiz, jahl qilarsiz. Lekin oradan yillar o‘tadi. Maktab tugaydi. Har kim har xil joyga ketadi. Ana shunda bolalikdagi eng yaqin do‘stlaringiz aslida aka-uka va opa-singillaringiz bo‘lganini tushunasiz.

Hayotda shunday vaziyatlar bo‘ladiki, ba‘zi do‘stlar ketadi, ayrim odamlar unutadi. Lekin oilangiz siz bilan qoladi.

Hozir sizlarga bir oilada tarbiyalanib hayotda birgalikda katta muvaffaqiyatlarga erishgan buyuk aka-ukalar va opa-singillar haqida video qo‘yib beraman.

Vizual kontent

Bir oiladan chiqqan qahramonlar

https://youtu.be/zMrrqw_ooCA

O‘qituvchi: Mana ko‘rdingiz, bolalar, buyuklik oiladan boshlanadi. Bir-birini qo‘llab-quvvatlaydigan, yutug‘idan quvonadigan, qiyin paytda yonida turadigan aka-uka va opa-singillar insonning eng katta boyliklaridan biridir.

Shundan so‘ng, o‘qituvchi mavzuni kelajakka bog‘laydi.

O‘qituvchi: Hozir siz maktab o‘quvchisiz. Lekin vaqt o‘tib katta bo‘lasiz. Kimdir shifokor, kimdir muhandis, kimdir sportchi yoki tadbirkor bo‘ladi. Lekin bir kun kelib, ko‘pchiligingiz o‘z oilangizni qurasiz. Ana o‘sha paytda bugungi mavzu juda muhim bo‘lib qoladi.

Inson uy qurishi mumkin. Chiroyli mebel olishi mumkin. Lekin haqiqiy iliq oila pul bilan qurilmaydi. Uni mehr, hurmat va ishonch quradi.

Hozir shunday mehrlil va mehnatkash bir oila haqida video tomosha qilamiz. Bunday oilalar yurtimizda juda ko‘p. Tomosha qilish jarayonida balki o‘zingizga yoki oilangizga xos narsalarni ko‘rib qolsangiz, qayd etib boring, keyin aytib berasiz.

Vizual kontent

Sirojiddinning qishloqdagi bir kuni

<https://youtu.be/NM9IPm831QM>

O‘qituvchi: Bu oiladagi ko‘zga ko‘ringan va ko‘rinmayotgan mehrni payqadingizmi? Sizlar ham oilangizda shunday mehrni tuyasizlar, albatta, shundaymi?

Xo‘sh, Siz kelajakdagi oilangiz qanday bo‘lishini xohlaysiz?

O‘quvchilardan javoblar olinadi.

O‘qituvchi: Juda yaxshi. Mustahkam oilani kimdir tayyor holda olib kelmaydi. Uni insonning o‘zi yaratadi. Agar bugun ota-onamizni eshitishni o‘rganmasak, ertaga o‘zimiz ham oilada bir-birimizni tushunishda qiynalamiz.

O‘qituvchi kichik misol aytadi.

O‘qituvchi: Bir bola har kuni uyda onasiga yordam berardi. Idishlarni yuwardi, ukasiga qarashardi, otasi charchab kelsa choy damlab kelardi. Yillar o‘tib u ulg‘aydi. O‘z oilasini qurdi. Oilasi baxtli va farovon yashay boshladi. Chunki u oilada mehr va mas’uliyatni bolaligidan ko‘rib ulg‘aygan edi.

Yana bir bola esa uyda faqat “men” deb yashadi. Hech kimga yordam bermadi. Hammadan faqat talab qildi. Keyin katta bo‘lganda ham boshqalarni tushunishda qiynaldi. Oilasida muammolar, notinch vaziyatlar yuzaga kela boshladi. Chunki u mehrni faqat olishni bilar edi, ammo berishni bilmasdi.

Yaxshi oila birdan paydo bo‘lib qolmaydi. U bugundan boshlanadi. Sizning bugungi odatlaringizdan boshlanadi.

Kichik interaktiv topshiriq: “Oilam uchun men nima qila olaman?”

O‘qituvchi doskaga quyidagi gapni yozadi:

“Men oilamga yordam beraman, chunki...”

Har bir o‘quvchi gapni davom ettiradi.

Masalan: “...onamning charchashini istamayman.”

“...uyimiz tinch bo‘lishini xohlayman.”

“...oilam meni doim qo‘llaydi.”

“...men ham mehr qaytarishni istayman.”

O‘qituvchi bolalarning javoblarini tinglab, ularni rag‘batlantiradi.

O‘qituvchi: Bolalar, insonning ismi, tarbiyasi va qadriyatlari avloddan avlodga o‘tadi. Agar oilada yaxshi tarbiya, ilm va milliy o‘zlik saqlansa, bu yillar o‘tsa ham davom etaveradi. Hozir sizlar bilan ana shunday ildizlari mustahkam bo‘lgan bir avlod haqida videoni tomosha qilamiz.

Vizual kontent

Abdulla Qodiriy avlodlari zanjiri

<https://youtu.be/zILImPIbscM>

O‘qituvchi: Ko‘rdingizmi, bolalar, haqiqiy boylik faqat mol-dunyo emas, balki avlodlarga o‘tadigan tarbiya, nom va qadriyatlardir. Inson yaxshi nom qoldirsa,

uning izi farzandlari va nabiralari orqali davom etadi. Shu sababli har birimiz bugundan oilamizga, ismimizga va tarbiyamizga mas'uliyat bilan qarashimiz kerak.

III. YAKUNIY QISM (5 daqiqa)

O'qituvchi: Bugun biz juda muhim mavzu haqida gaplashdik. Ba'zan oilamizdagilar bilan tortishamiz, ranjiymiz, "meni tushunishmaydi" deb o'ylaymiz. Bu tabiiy. Chunki har bir insonning xarakteri, fikri boshqacha. Lekin shuni unutmasligimiz kerakki, oila bizni himoya qiladi. Kuch beradi. Ishonch beradi. Inson yiqilganda suyab qoladi. Quvonganda birga quvonadi. Hayotdagi eng og'ir kunlarda ham insonni yolg'iz qoldirmaydi.

Shuning uchun oilani qadrlash kerak. Ba'zan oddiy "rahmat" so'zi ham oiladagi mehrni kuchaytiradi. Onaga yordam berish, otani hurmat qilish, aka-ukalar bilan ahil bo'lish – bularning barchasi mustahkam oilaning poydevoridir.

Kelinglar, bugun ichimizda bir qaror qilamiz. Uyga borgach, oilamizdagilarga insonga yaxshi gap aytamiz. Balki onamizga yordam berarmiz. Balki otamiz bilan samimiy suhbatlasharmiz. Balki ukamiz yoki singlimiz bilan urishmasmiz. Chunki mehr ham oilada o'rganiladi. Shunda o'zingiz amin bo'lasizki, ulardan siz bergan mehrga munosib javob qaytadi. Oila – mehr generatori, ya'ni ko'paytirib beruvchisidir.

So'ng yakuniy savol beradi:

O'qituvchi: Mustahkam va baxtli oila bo'lishi uchun Siz bugundan nima qila olasiz?

Bir necha o'quvchi javob beradi.

O'qituvchi (mashg'ulotni yakunlaydi): Esda tutinglar, bolalar. Dunyoda juda ko'p joylarni almashtirish mumkin. Maktabni ham, ishni ham, shaharni ham. Lekin inson qalbida oilaning o'rnini hech narsa bosa olmaydi. Shu sababli oilangizni qadrlang, yaqinlaringizni asrang.